

TARJIMASHUNOSLIK

UO‘K(UDC, УДК): 81-26

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GEOLOGIK TERMINLARDAGI
METAFORIZATSIYANING TARJIMA MUAMMOLARI³³

Rixsiyeva Lola Azimjanovna

*O‘qituvchi,**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**mustaqil izlanuvchisi,**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: lolarisheva77@gmail.com**ORCID ID: [0000-0001-7478-5734](https://orcid.org/0000-0001-7478-5734)*

ANNOTATSIYA

KALIT SO‘ZLAR

Ushbu maqolada geologik terminologiyada metaforizatsiya hodisasini hamda uning ingliz va o‘zbek tillarida tarjima jarayonidagi muammolari tahlil qilingan. Maxsus ilmiy matnlarda ko‘plab geologik terminlar inson tajribasi va idrokiga asoslangan metaforik ma‘nolarga ega bo‘lib, ular boshqa tilga bevosita tarjima qilish jaryonida ilmiy aniqlikni saqlashni qiyinlashtiradi. Tadqiqotda metaforik tushunchalarning terminologik birliklarni shakllantirish va leksik ekvivalent tanlashdagi roli yoritiladi. Masalan, ingliz tilidagi ko‘plab terminlar metaforik komponentlarga ega bo‘lsa, ularning o‘zbek tili tarjimasida ko‘pincha izohli yoki neytral ifodalar ishlatiladi. Metaforaning noto‘g‘ri tarjimasini terminning ilmiy mazmunini buzishi va matnning tushunarli bo‘lishiga xalaqit beradi. Maqolada tarjimada manba va maqsad konseptual maydonlar, kontekstni chuqur tahlil qilish va tarjima strategiyalarining ahamiyati yoritilgan. Ingliz va o‘zbek geologik terminlari chog‘ishtirilib, metaforizatsiyani neytrallashtirish va ekvivalent tanlash kabi muammolar aniqlangan. Tadqiqot natijalari geologiya sohasidagi ilmiy matnlarni tarjima qilishda terminologik aniqlikni ta‘minlash va ilmiy-neytral tarjima usullarini qo‘llashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Geologiya, geologik terminlar, metaforizatsiya, kognitiv metafora, metaforik obrazlar, tarjima birligi, tarjima muammosi, terminologik ekvivalentlik, izohli tarjima.

Received: February 09, 2026**Accepted:** February 10, 2026**Available online:** May 10, 2026

³³ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Rixsiyeva L. Ingliz va o‘zbek tillarida geologik terminlardagi metaforizatsiyaning tarjima muammolari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 2(10) — B. 278-286.

PROBLEMS OF TRANSLATING THE METAPHORIZATION OF GEOLOGICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Rikhsieva Lola Azimjanovna

*Teacher, independent researcher of
Uzbekistan State World Languages University*

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: lolarihsieva77@gmail.com

ORCID ID: [0000-0001-7478-5734](https://orcid.org/0000-0001-7478-5734)

ABSTRACT

This article analyzes the phenomenon of metaphORIZATION in geological terminology and related challenges in the process of translating into English and Uzbek. In specialized scientific texts, many geological terms have metaphorical meanings based on human experience and perception, which complicates the preservation of scientific accuracy when directly translated into another language. The study highlights the role of metaphorical concepts in the formation of terminological units and the selection of lexical equivalents. For instance, while many terms in English contain metaphorical components, their Uzbek translations often employ descriptive or neutral expressions. Inaccurate translation of metaphors distorts the scientific content of the term and hinders text comprehension. The article emphasizes the importance for translators to conduct in-depth analysis of source and target conceptual fields, context, and translation strategies. The comparison of English and Uzbek geological terms revealed issues such as neutralization of metaphORIZATION and selection of equivalents. The research findings demonstrate the significance of ensuring terminological precision when translating scientific texts in the field of geology and applying scientifically neutral translation techniques.

KEY WORDS

Geology, geological terms, geological terms, cognitive metaphor, metaphorical images, translation unit, translation problem, terminological equivalence, descriptive translation.

**ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА МЕТАФОРИЗАЦИИ ГЕОЛОГИЧЕСКИХ
ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ****Рихсиева Лола Азимжановна***Преподаватель, соискатель,**Узбекский государственный**университет мировых языков**Ташкент, Узбекистан**E-mail: lolarisieva77@gmail.com**ORCID ID: [0000-0001-7478-5734](https://orcid.org/0000-0001-7478-5734)***АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется явление метафоризации в геологической терминологии и связанные с ним проблемы, возникающие в процессе перевода на английский и узбекский языки. В специальных научных текстах многие геологические термины имеют метафорические значения, основанные на человеческом опыте и восприятии, что затрудняет сохранение научной точности при непосредственном переводе на другой язык. В исследовании освещается роль метафорических понятий в формировании терминологических единиц и выборе лексических эквивалентов. Например, если многие термины в английском языке содержат метафорические компоненты, то в их узбекском переводе часто используются описательные или нейтральные выражения. Неправильный перевод метафоры искажает научное содержание термина и затрудняет понимание текста. В статье подчеркивается важность глубокого анализа исходных и целевых концептуальных полей, контекста и стратегий перевода. При сопоставлении английских и узбекских геологических терминов были выявлены такие проблемы, как нейтрализация метафоризации и выбор эквивалентов. Результаты исследования показывают важность обеспечения терминологической точности при переводе научных текстов в области геологии и применения научно-нейтральных приемов перевода.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Геология,
геологические термины,
метафоризация, когнитивная
метафора, метафорические
образы, единица перевода,
проблема перевода,
терминологическая
эквивалентность,
описательный перевод.

KIRISH

Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslik mustaqil fan sohasi sifatida shakllanib, tarjima jarayonining umumiy qonuniyatlarini, tarjimaning turlari hamda tillarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi. Tarjima nazariyasini puxta egallash nafaqat tarjima amaliyotini samarali tashkil etish, balki turli sohalarga oid, jumladan ilmiy va terminologik matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tarjima jarayonida, ayniqsa maxsus soha matnlarida uchraydigan ekvivalentlik, termin tanlash, polisemiya va metaforizatsiya kabi masalalarni yoritishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bugungi kunda ham izchil davom ettirilmoqda. Bularga o‘zbek tilshunos va tarjimashunos olimlaridan I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov, A.Yuldashev, xorijiy olimlaridan L.S.Barxudarov, Z.G.Proshina, N.N.Bobyreva, G.Isina, K.Ozga, Piter Nyumarklarning ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Geologiya fani tabiiy resurslarni aniqlash, yer po‘stining tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish, shuningdek, ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fundamental fanlardan biridir. Ushbu fan doirasida shakllangan geologik terminologiya ilmiy bilimlarni aniq va izchil ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois geologik terminlarning lingvistik xususiyatlarini, ularning shakllanishi, semantik rivoji va funksional qo‘llanishini o‘rganish tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim ilmiy masala hisoblanadi. Ayniqsa, geologik terminlarning metaforizatsiya, polisemiya va terminlashuv jarayonlari orqali vujudga kelishi ularni tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan ingliz va o‘zbek tillaridagi geologik terminologiyani qiyosiy tahlil qilish terminologik ekvivalentlikni aniqlash, ilmiy aniqlikni ta‘minlash hamda tarjima amaliyotini takomillashtirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ikki til doirasida olib boriladigan bunday tadqiqotlar nafaqat tarjimashunoslik, balki umumiy tilshunoslik rivojiga ham munosib hissa qo‘shadi.

ASOSIY QISM

Metaforizatsiya jarayoni turli tillarda bir xil shaklda namoyon bo‘lmaydi, chunki metaforik obrazlar har bir til va madaniyatda turlicha konseptuallashtiriladi. Shu sababli, tarjimon metaforaning shakliy ifodasiga emas, balki uning ortidagi ilmiy mazmun va funksiyasiga e‘tibor qaratishi zarur. Metaforik birliklarni ikki tilda qiyoslab tahlil qilish tarjimada terminologik aniqlikni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy tilshunos olim K. Ozga o‘z ilmiy ishida izomorfik xususiyatlarni tasniflash jarayonida semantik sinf doirasida insonning olamni idrok etish davomida shakllangan bilimlariga tayanadi. Bunda ma‘lumot va bilimni qiyoslash asosida uzatish g‘oyasi kognitiv (konseptual) metafora orqali tilda ko‘chma ma‘noli birliklarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Olim ushbu jarayonda fikrlashning

analogik mexanizmini asosiy omil sifatida ko'rsatadi (Ozga K., 2011, 35). Kognitiv metaforizatsiya jarayonida manba va maqsad konseptual maydonlar o'zaro aloqada bo'ladi: manba maydoni inson tajribasi asosida shakllangan, aniq va yaxshi o'zlashtirilgan bilimlar majmuini ifodalasa, maqsad maydon nisbatan mavhum va kamroq aniqlangan tushunchalarni qamrab oladi (Yuldashev A., 2019, 57-62). Aynan manba maydon orqali maqsad maydonga oid tushunchalar yanada ravshanlashadi va chuqurroq anglanadi.

Kognitiv metafora til tizimida stilistik bo'yoqdorlikni oshirishga xizmat qiluvchi hodisa emas, balki borliqdagi obyekt va hodisalarning sifat hamda belgilari inson tafakkuri orqali konseptual tarzda modellashtirilishini ta'minlovchi vosita sifatida qaraladi (Isina G.I., Trunova A.V., 2018, 41-43). Misol uchun, neft va gaz konlar geologiyasida burg'ilash ishlaridan keyin ingliz tilidagi *fishing* – *tutish ishlari olib borish*, *fish* – *neft qudug'idagi begona predmet* kabi terminlar keng qo'llaniladi. Asosan, burg'ilash quvurining singan metall bo'laklari yoki burg'ilash uskunasi ayrim komponentlari neft qudug'ida qolib ketganda, ularni olib tashlash uchun tutish ishlari olib boriladi. Bunda *fishing* va *fish* tayyor til birliklar manba maydoni bo'lib, suv jonzoti konsepti hisoblanadi hamda neft va gaz konlar geologiyasida amalga oshiriladigan jarayonlarni yaxshiroq anglashga olib keladi yoki geomorfologiyada ingliz tilida *kettle* – *botiq, tovoqsimon pastlik* termini idish-tovoq buyumi konsepti hisoblanib, manba maydoni sifatida maqsad maydonidagi relyef turi haqida tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi. O'zbek tilida ham geologlar orasida ishlatiladigan burg'ulash natijasiz yakunlanganda *qush* terminini misol qilib keltirishimiz mumkin, qush manba maydoni bo'lib, bir zumda uchib ketadigan jonzot konsepti hisoblanadi va neft bo'lishi kerak edi, ammo "uchib ketdi" degan jarayoni yaxshiroq tushunishga olib keladi.

O'zbek tilida *qo'y peshona* termini geologiyada zich, qattiq tog' jinsdan tashkil topgan, muzliklarning surilishi natijasida silliqlangan, ba'zida muzliklarning surilishi izlari qolgan tik qiyalik ma'nosini anglatadi (Isaxodjayev B.A., 2007, 23). Ushbu termin birikmaning yasalişida *qo'y* komponentida metaforik va *peshona* komponentida metonimik ma'no ko'chish hodisasi sodir bo'lgan, ikkala qism tutashuvi asosida metaftonimiya kognitiv mexanizmi yuzaga kelgan.

Misollardan ko'rinib turibdiki, konseptual metafora yoki konseptual metonimiya orqali geologiyaning sohalarida ham ingliz tilida, ham o'zbek tilida ko'chma ma'noga ega bo'lgan til birliklarni hosil qilishda, fikrlash analogiyasida izomorfik jihatni ko'rishimiz mumkin.

Tarjimalarda terminlarning noto'g'ri qo'llanilishi yoki so'zning terminologik bo'lmagan ma'noda qo'llanilishi terminning mohiyatini tushunmaslikdan dalolat beradi. L.S.Barxudarov o'z ilmiy ishida tarjima birlikni quyidagicha ta'riflaydi:

“Tarjima birligi deganda, biz asliyat matnidagi birlikning tarjima matnida mos kelishi mumkin bo‘lgan, lekin tarkibiy qismlari alohida ko‘rilganda tarjima qilinayotgan matndagiga mos kelmaydigan birlikni tushunamiz” (Barxudarov L.S., 1975, 175). O‘zbek tilshunos olimlari I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarovlar nima uchun birliklarning tarkibiy qismlari alohida ko‘rilganda tarjima qilinayotgan matndagiga mos kelmasligini quydagicha tushuntirib berishgan: “Ma’lumki, tarjimada bitta tushunchaga bitta tushunchaning to‘g‘ri kelish holatlari kam uchraydi, bir so‘zga so‘z birikmasi, bir so‘zga gap, hatto bitta so‘z ma’nosiga ikki va undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘lgan frazeologik birlik to‘g‘ri kelishi mumkin”(G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N., 2012, 106). Ko‘pgina olimlarning fikriga ko‘ra, tarjima birligi tarkibiga tilda mavjud bo‘lgan barcha birliklar, ya’ni fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi, klishelar, frazeologik birlik, terminlar, gap, abzas va tarjima qilinayotgan butun matn kiradi.

Geologik terminlarni tarjima qilish jarayonida terminologik ekvivalentlikni ta’minlashni murakkablashtiruvchi tarjima birligi muammolaridan biri metaforizatsiya hodisasi bilan bog‘liqdir. Ushbu hodisa tarjimondan kontekstni chuqur va har tomonlama tahlil qilishni talab etadi. Metaforik obrazlarning tillararo idroki bir xil bo‘lmagani sababli, ko‘plab hollarda metafora tarjimada saqlanmaydi va uning o‘rnida izohli yoki tavsifiy tarjima qo‘llaniladi. Metaforaning so‘zma-so‘z tarjima qilinishi terminning ilmiy mazmunini noto‘g‘ri talqin etilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois tarjima jarayonida metaforik obrazni saqlashdan ko‘ra, terminning ilmiy-neytral va bevosita ma’nosini ifodalash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval

Ingliz geologik terminlarida metaforizatsiya va ularning o‘zbek tilidagi tarjimasi

Inglizcha termin	Metaforik asos	So‘zma-so‘z tarjima	Tavsiya etilgan tarjima	Izohli tarjima
<i>Volcanic neck</i>	Bo‘yin	Vulqon bo‘yini	<u>Vulqon bo‘g‘zi</u>	<i>Vulqon kanalida hosil bo‘lgan ustunsimon intruziv jism.</i>
<i>River mouth</i>	Og‘iz	Daryo og‘zi	<u>Daryo quyilishi joyi</u>	<i>Daryoning dengiz, ko‘l yoki boshqa yirik suv havzasiga quyiladigan qismi.</i>
<i>Oxbow lake</i>	Buyum	Ho‘kiz yugani ko‘li	<u>Qiyiq ko‘l</u>	<i>Daryoning ajralib qolgan burilishidan hosil bo‘lgan ko‘l.</i>

<i>Shoulder of slope</i>	Yelka	Yonbag‘ir yelkasi	<u>Yonbag‘irning yuqori qismi</u>	<i>Yonbag‘irning yuqori qismida joylashgan, nishablikning tepa qismi bilan asosiy yonbag‘ir orasidagi o‘tish zonasi.</i>
<i>Kettle</i>	Buyum	Choynak, qozon	<u>Botiq, tovoqsimon pastlik</u>	<i>Atruf hududlarga nisbatan past joylashgan, tovoqsimon shaklga ega relyef shakli.</i>

2-jadval

O‘zbek geologik terminlarida metaforizatsiya va ularning ingliz tilidagi tarjimasi

O‘zbekcha termin	Metaforik asos	So‘zma-so‘z tarjima	Tavsiya etilgan tarjima	Izohli tarjima
<i>Qush</i>	Uchadigan jonzot	Bird	<u>There’s no pay zone.</u>	<i>Oil “flew away like a bird” “Flying bird” Used when drilling yields no results: there should have been oil, but it “flew away”.</i>
<i>Qo‘y peshona</i>	Uy hayvoni	A sheep’s forehead	<u>Roche moutonnée</u>	<i>A steep slope composed of dense, hard rock, smoothed by glacial drift, sometimes leaving traces of glacial drift.</i>
<i>Ko‘chki tili</i>	Tana a‘zosi	Landslide tongue	<u>Solifluction lobe</u>	<i>An isolated tongue-shaped formed by rapid solifluction on certain sections of a slope showing variations in</i>

				<i>gradient. This feature commonly has a steep front and a relatively smooth upper surface.</i>
<i>Tog' etagi</i>	Kiyim etagi	A mountain' hem	<u>Piedmont/</u> <u>Mountain</u> <u>base/</u> <u>Foothill</u>	<i>A geomorphological zone located at the base of a mountain range, forming a transitional area between mountains and plains.</i>

Tarjima birligi muammosining metaforizatsiya hodisasi tarjimada semantik jihatdan chalkashliklar yuzaga keltirib, soʻz tanlashda xatoga yoʻl qoʻyishga olib keladi. Misol uchun, oʻzbek tilida geologiya sohasida koʻchki massasi siljigan qismida oʻlchami har xil boʻlgan botiq joylarni inson tana aʼzosining til shakliga oʻxshatilgani sababli, **koʻchki tili** degan termin birikma qoʻllaniladi. Ushbu termin birikmani ingliz tiliga toʻgʻridan toʻgʻri **landslide tongue** deb tarjima qilinsa, semantik jihatdan chalkashlik yuzaga keladi, chunki ingliz tilida bunday yer relyefini tarjima qilishda insonning boshqa tana aʼzosiga oʻxshatiladi. Bunda, inson tana aʼzosi tilga emas, balki quloqning pastki qismi goʻshtli joyiga oʻxshatilgani sababli **solifluction lobe** deb tarjima qilish joizdir. Geologik terminologiyada inglizcha **volcanic neck** termin birikmasi oʻzbek tiliga **vulqon boʻgʻzi** tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiq, chunki termin tarkibidagi metaforik obrazlar turli tillarda bir xil idrok etilmaydi. Ingliz tilidagi **neck** antropomorf obrazga tayansa, oʻzbek tilida ilmiy kontekstda **boʻgʻiz** soʻzi tor, kanalsimon va oʻtkazuvchi strukturani aniqroq ifodalaydi hamda termining funksional-semantik mazmunini toʻliqroq yetkazadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, metaforizatsiya tarjima jarayonida sezilarli qiyinchiliklar tugʻdiradi, chunki metaforik terminlar koʻpincha ilmiy tushunchalarni obrazli nomlash asosida shakllanadi. Bunday terminlarda leksik birlikning tashqi shakli bilan uning ilmiy mazmuni oʻrtasida toʻliq moslik mavjud boʻlmaydi. Natijada, metaforani soʻzma-soʻz tarjima qilish terminning ilmiy aniqligini pasaytirishi yoki maʼno noaniqligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimon koʻpincha metaforik komponentni saqlash yoki uni neytrallashtirib, izohli yoki terminologik jihatdan normallashtirgan ekvivalentni tanlash

zarurati bilan yuzma-yuz keladi. Bu holat tarjimonda nafaqat til bilimini, balki sohaviy kompetensiya va kontekstual tahlil ko‘nikmalarini ham talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975. – С. 175.
2. Исина Г.И., Трунова А.В. Метафора как объект изучения когнитивной лингвистики // PHILOLOGY. – М.: Научное обозрение, 2018. – № 1 (13). – С. 41-43.
3. Isahodjaev B.A., Umarhodjaev M.U., Adilov A.A., Pirnazarov M.M., Azimov A.M. “Geologiya atamalarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” Birinchi jildi, T., 2007.
4. Krzysztof, Ozga. On Isomorphism and Non-Isomorphism in Language. - Primum Verbum, 2011. ISBN: 978-83-62157-27-3.
5. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – B. 106.
6. Юлдашев А.Г. Кўчма маъноли сўзларда когнитив механизмларнинг ўрни // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 57-62.

REFERENCES

1. Barxudarov L.S. (1975). Language and Translation: Issues of General and Specific Translation Theory. M.: International Relations. P. 175.
2. Isina G.I., Trunova A.V. (2018). Metaphor as an object of study of cognitive linguistics // PHILOLOGY. M.: Scientific Review, No 1 (13). P. 41-43.
3. Isahodjaev B.A., Umarhodjaev M.U., Adilov A.A., Pirnazarov M.M., Azimov A.M. (2007). “Russian-Uzbek Explanatory Dictionary of Geological Terms”, Volume First, T., Krzysztof, Ozga. (2011). On Isomorphism and Non-Isomorphism in Language. Primum Verbum ISBN: 978-83-62157-27-3.
4. Gafurov I., Muminov O., Kambarov N. (2012). Theory of Translation. Tashkent: Tafakkur bustoni. P. 106.
5. Yuldashev A.G. (2019). The role of cognitive mechanisms in words with figurative meanings // Foreign Languages in Uzbekistan. Tashkent. No. 3. - P. 57-62.